XALQ DEPUTATLARI YANGIQO'RG'ON TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 22 - may VI-47-70-6-90-K/23 Yangiqo‘rg‘on tuman hokimligi

Yangiqo‘rg‘on tumani mahalliy byudjetining 2023 yil 1-chorak daromadlar rejasini ortirib bajarilgan qismi mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-son Qonuniga asosan, tuman hokimligining Yangiqo‘rg‘on tuman mahalliy byudjetining 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasini ortirib bajarilgan qismi mablag‘ini yo‘naltirish to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Prezidentning hududlarga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar, Vazirlar Mahkamasining qaror va ko‘rsatmalari ijrosi tuman miqyosida bajarilishini inobatga olib, ushbu topshiriqlarni bajarilishi bilan bog‘liq xarajatlarning asosiy qismi tuman byudjeti hisobidan amalga oshirilayotganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-son Qonuniga asosan tuman hokimining Xalq deputatlari Kengashlariga taqdim etgan taklifiga asosan, tuman mahalliy byudjetining 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasini ortirib bajarilgan qismi mablag‘larini 1-ilovaga muvofiq yo‘naltirilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (Sh.To‘raboev), Xalq deputatlari tuman kengashi kotibiyati (M.Ergasheva), Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Boymirzayev)ga:

ajratilgan mablag‘lar doirasida belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi va tuman g‘aznachilik bo‘linmasiga taqdim etish;

ajratilgan mablag‘lardan to‘g‘ri, maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlash;

ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy byudjetiga qaytarish choralarini ko‘rsinlar.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Boymirzaev)ga byudjet xarajatlar rejasiga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish, tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (R.Shomirzaev)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish hamda ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifalari topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Ko‘paysinov zimmalariga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **A.Najmiddinov**

Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on
tuman Kengashining
2023 yil 22 maydagi
VI-47-70-6-90-K/23-son qaroriga
1-ilova

Yangiqo‘rg‘on tuman mahalliy byudjetining 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasini ortirib bajarilgna qismi mablag‘larini yo‘naltirilishi

T/R	Mablag‘ yo‘naltirilgan tashkilot nomi	Mablag‘ yo‘naltirilishining maqsadi	Mablag‘ miqdori (Ming so‘mda)
Yangiko‘rgon tumani bo‘yicha jami			**1 251 844,0**
1	Tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarni faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-5072-sonli qarorga ko‘ra **"Fuqarolar tashabbusi" jamg‘armasiga 30 foiz**	376 644,0
2	Tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi "Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat xayotidagi faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-5020-sonli qarorga ko‘ra **"Ayollar daftari" jamg‘armasiga 15 foiz**	187 800,0
3	Tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 11 martdagi "Yoshlarlarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 132-sonli qarorga ko‘ra **"Yoshlar daftari" jamg‘armasiga 15 foiz**	187 800,0
4	Tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 21 noyabrdagi 930-sonli qaroriga asosan, tuman hokimligi ma’muriy binosida xizmat ko‘rsatilgan qo‘riqlash xizmati uchun	70 300,0
5	Tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 noyabrdagi “Ipoteka krediti mexanizmlarini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5886-sonli farmoni asosan Yangi qo‘rilgan uy-joylarga yoritish tizimi tarmog‘ini tortishga	200 000,0
6	Tuman obodonlashtirish boshqarmasiga	Namangan tumanaro iqtisodiy sudining 2023 yil 18 apreldagi 4-1601-2302/2573-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Kosonsoy Davlat O‘rmon xo‘jaligi”dan yashil makon dasturi doirasi olingan manzarali daraxtlar sotib olishdan bo‘lgan qarzdorlikni bartaraf etishga	40 000,0
7	Tuman obodonlashtirish boshqarmasiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbilar to‘g‘risida” PQ-4102-sonli qaroriga asosan, Tuman ichki ko‘chalarni shag‘allash ishlari uchun yonilg‘i moylash materiallari sotib olishga	40 000,0
8	Tuman Irrigatsiya bo‘limiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muxofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbilar to‘g‘risida”gi PF-46-sonli farmoniga asosan, Tumandagi Qandiyon massivida yashil bog‘lar tashkil etish va Shokirsufi kanalini Gaiston zovuridan o‘tgan temir turubani ta’mirlash ishlari uchun yonilg‘i sotib olishga	40 000,0
9	Tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 31 maydagi PF-5132-sonli qarori ijrosi yuzasidan, tuman hokimligiga "Ijro.gov.uz va "E-qaror" elektron tizimiga	64 500,0
10	Tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Administratsiyasini maxsus topshirig‘iga asosan Saylov uchastkalarida Jamoat shartnomasida ish olib borish uchun tashkil etilgan hokim yordamchisi ish xaqi va undan ajratma xarajatlariga	44 800,0